

TALABALARNI VATANPARVAR QILIB TARBIYALASHDA MILLIY TARBIYANING O‘RNI

Alimjon Obloqulovich Xudoyqulov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalarni vatanparvar qilib tarbiyalashda milliy tarbiyaning o‘rni, ularda vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, milliy qadriyatlarimiz, an‘analarimiz, hamda tariximizni o‘rgatish orqali vatanparvar qilib tarbiyalash, insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g‘oyalari asosida tarbiyalash haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: vatanparvar, insonparvar, talabalar, ezgulik, bunyodkorlik tarbiya, milliy tarbiya, g‘oya va tarbiyalash.

So‘z boshida shuni da’kidlash lozimki, vatanparvarlik va insonparvarlik jamiyat va shaxslarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan ikkita asosiy qadriyatdir. Ko‘pincha o‘z vataniga muhabbat va sadoqat deb ta’riflanadigan vatanparvarlik fuqarolarda milliy o‘zlikni anglash va birdamlik tuyg‘usini tarbiyalash demakdir. Boshqa tomondan, insonparvarlik rahm-shafqat, hamdardlik va boshqalarning, ayniqsa muhtojlarning farovonligini oshirishga intilish bilan ajralib turadi.

Talabalarni zamon talablari darajasida ularga sifatli ta’lim-tarbiya berish, ularda vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, vatanparvar qilib tarbiyalash, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish, o‘z kuchiga ishonadigan, bilimli va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir.

Hozirgi kunda talabalarni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha mamlakatimizdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishda har tomonlama rivojlangan, aqilliq, zukko, xalqiga, shuningdek, vataniga va ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalashda keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Barchamizga yaxshi ma’lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”[1]. Bundan kelib chiqib, har bir talabada har qanday ishda vatanparvarlik hissi

namoyon bo'lishi kerak. Jumladan, davlatimiz ramzlari, milliy qadriyat va an'analarimiz, tarixiy obidalar va qadamjolarimiz shular jumlasiga kiradi.

Talabalarni vatanparvar qilib tarbiyalashda milliy tarbiyaning o'rni beqiyos. Ularga yoshligidan milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz, hamda tariximizni o'rgatish bugungi kunning asosiy va muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, allomalarning meroslarida insonning kamolotga yetishi, sog'lom shakllanishi, sifatli va to'g'ri ta'lim tarbiya olishi, sog'lom turmush tarzini kechirishi, sog'lom xulq-atvor fazilatlariga ega bo'lib, ezgu va sog'lom g'oya va mafkura asosida o'z hayotini yo'lini adashmay qurishi lozimligi haqida juda qimmatli fikr-mulohazalarni esga olish mumkin. Muqaddas bo'lgan "Qur'oni Karim"da, "Hadisi Sharif"da, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Xojib, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Husayn Voiz Koshifiy va Unsurulma oliy Kaykovus kabi allomalarning asarlarida ham har bir insonning kamoli, chiroyli fazilatlarini, go'zal xulqi, ezgulikka va bunyodkorlikka yo'g'irilgan g'oya va mafkuralar asosida yozilgan bo'lib, yomon ishlardan tiyilish, yomon ishlar qilguvchilarga to'g'ri yo'l ko'rsatish, shuningdek insonlarni buzg'unchi fikr va yod g'oyalarga chalinmasligi uchun komil hamda barkamol qilib tarbiyalashda qimmatli fikrlar ham ilgari surilgan. Bunday fikrlar shaxslarni umumiy manfaatlar yo'lida mehnat qilishga, Vatanimizni, milliy va madaniy boyliklarni asrab avaylash, o'z mamlakati taraqqiyoti va ravnaqiga hissa qo'shishga undaydi.

Lekin shunga qaramay so'nggi yillarda yoshlar o'rtasida vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularining holati to'g'risida xavotirlar kuchaymoqda. Ba'zilar yoshlarning befarqligi va o'zini o'zi o'ylashga moyilligi kuchayib borayotganini ta'kidlasha, boshqalari ular avvalgi avlodlarga qaraganda ijtimoiy ongli va aqilliroq, deb hisoblashadi. Afsuski, bunday emasligi ularga ta'lim tarbiya berish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanayotganligini aytishimiz mumkin.

Shuningdek, talabalar orasida Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida namoyon bo'layotganligi hamda ularning hayotida amaliy odatlarga aylanmayotganligini ko'rishimiz mumkin. Buning natijasida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida farq ko'zga tashlanmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarni hayoti davomida o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga karatilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chortadbirlar yigindisi.

Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir [2].

“Tarbiya” so‘zi “milliy tarbiya” tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lganligi sababli, ushbu tushunchaga ham ta’rif berib o‘tamiz. Arabcha “tarbiya” va “tarbiyat” so‘zlari parvarish qilmoq, ta’lim bermoq, o‘rgatish, odob o‘rgatish, navozish, mehribonlik ko‘rsatish, ko‘z-quloq bo‘lish, himoya qilish kabi ma’nolarni anglatadi.

Talabalarga ta’lim tarbiya berish jarayonida tarbiyaning bir nechta turlari keng qo‘llanilib kelinmoqda. Shunday tarbiya turlaridan biri milliy tarbiya hisoblanadi.

Milliy tarbiya – bu yosh avlodni muayyan millatning mentaliteti, turmush tarzi va hayotiy tajribasidan o‘tgan g‘oyalarga asosan voyaga yetkazish jarayonidir. Milliy tarbiyaning manbai – milliylik hisoblanadi. Millat, “milliylik”, “milliy g‘urur”, “milliy odob”, “millatlararo muloqot madaniyati” tushunchalarining o‘zagini arabcha “mil” so‘zi tashkil qiladi. Ushbu so‘zlar arabchadan olingan bo‘lib, “o‘zak”, “tub mohiyat”, “negiz” ma’nolarini anglatadi. “Millat” so‘zi esa din, mazhab, ummat, bir mazhabga mansub aholi, xalq ma’nolarini anglatadi. Bunda muayyan millatning hayoti davomida amal qilib kelinayotgan milliy qadriyatlar tizimiga asoslaniladi. Milliy tarbiyaning negizini milliy g‘oya tashkil qiladi.

Milliy g‘oya – bu biror millat hayotiga mazmun baxsh etadigan va uni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir [3]. Shu jihatdan o‘zbek millati o‘zining asrlar davomida shakllangan milliy g‘oyasi va unga tayangan milliy tarbiya tajribasiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil yanvar oyida mamlakatimizning quyidagi g‘oyalarga asoslangan yangi milliy g‘oyasini e’lon qildi: 1) insonparvarlik; 2) ezgulik; 3) bunyodkorlik [4].

Bugungi kunda mamlakatimizning yangi milliy g‘oyasida milliy va umuminsoniy g‘oyalar hamda qadriyatlar uyg‘unligida o‘z ifodasini topmoqda. Chunki, dunyodagi har bir xalq va mamlakat insonparvarlik, ezgulik hamda bunyodkorlik g‘oyalarini yoshlar ongiga singdirib, ularni milliy tarbiya asosida voyaga yetkazish uchun bor kuch g‘ayratini safarbar qilishmoqda.

Insonparvarlik – insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huqukliligi to‘g‘risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shartsharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko‘ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, bu-tun mavjudot, borliq insonga, uning baxtsaodatiga xizmat qilishi lozim [5].

Ezgulik – ma’naviy-axloqiy kategoriyalar orasidagi eng muhim tushunchalardan biri hisoblanadi. Ezgulik inson faoliyatining asl mohiyatini anglatib, inson qalbida tajassumi sifatida namoyon bo‘ladi. Insonda va jamiyatda eng yaxshi va ideal g‘oyalarni tarkib toptirish hamda inson manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu

amal” g‘oyasi “Avesto”dan tortib barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o‘rin egallashi ham shuning bir dalolati desak adashmagan bo‘lamiz.

Ezgulik insonga eng kuchli ma‘naviy lazzat bag‘ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, chinakam baxt sari yetaklovchi fazilat bo‘lib, shaxsni komillikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi yuksak qadriyat hisoblanadi. Shu tufayli u amaliyotda qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ezgulik ahlok kategoriyasi bo‘lib, ahloqiy bahoning eng umumiy shaklidir. Ezgulik o‘zida ijobiy narsa, voqea-hodisalar, jarayon va vaziyat hamda fazilatlarni mujassam etadi. Ezgulik axloqiy barkamollik negizidir. U olijanoblik, mehr-oqibat, samimiylilik, saxiylik, beg‘araz tuyg‘ularda o‘z ifodasini topadi. Umuman olganda, ezgulik ijtimoiy, shaxsiy xulq-atvor va xatti-harakatni ma‘naviy jihatdan baholashning muhim mezonidir.

Jumladan, bunyodkorlik – har bir insonga hos bo‘lgan fazilatlardan biri bo‘lib, bunyod etish, yaratuvchilik, ijodkorlikni anglatadi. Hozirgi kunda jamiyat taraqqiyotining tub burilish davrlarida, o‘zgarish va islohotlarni amalga oshirish jarayonida bunyodkorlikning yaratuvchanlik, xalqni birlashtirish va ezgu maqsadlar sari safarbar etish imkoniyatlaridan samarali foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi istiqlol davri va mustaqillikni mustahkamlash jarayonida ona Vatanni sevish, yurt tinchligini asrab avaylash, xalq farovonligi yo‘lida kurashish, ezgu amallar va savob ishlarni amalga oshirish mamlakatimizdagi bunyodkorlikning ma‘no-mazmunini belgilaydi.

Hozirgi kunda ushbu fazilatlarni ta‘lim-tarbiya berish jarayonida talabalar ongida shakllantirish har bir jamiyat a‘zosining vazifasi hisoblanadi.

Bunday vazifalardan Davlatimizning olib borayotgan yangi milliy g‘oyasi “Milliy tiklanishdan – ilmiy yuksalish sari” bosh g‘oya asosida olib borilayotgani barchamizga ma‘lum. Bunday g‘oyaning mazmun mohiyati xalq hayotini, inson faoliyatini va davlat siyosatini milliy manfaatlar asosida yuksaltirishni o‘z ichiga oladi. Shundan kelib chiqib, O‘zbekistonning ta‘lim tizimida milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati yangi milliy g‘oyaga asoslanishi bilan farq qiladi.

Milliy tarbiya umumpedagogika qonuniyatlariga asoslanib, tarbiyaning maqbul va samarali metodlariga, tarbiyaning tajribadan o‘tgan va zamonaviy texnologiyalariga, tarbiyaning individual uslublari kabi omillariga tayanadi [6].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har bir oilada farzand tarbiyasi uchun tayanch fazilatlarni shakllantirish, ushbu fazilatlarni ularda odatlantirish, shuningdek farzandlarni tarbiyalashda tushuntirish, ko‘rsatish, o‘rgatish hamda shaxsiy namuna bo‘lish kabi usullarni qo‘llash va shu

orqali ma'naviy va milliy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida bilimli, ma'naviyatli, ma'rifatli, vatanparvar, insonparvar qilib voyaga yetkazish maqsadga muvofiq bo'lsa, o'z o'rnida tarbiya esa milliy fazilatlarga yo'g'rilgan milliy tarbiya bilan chambarchas bog'liq ekanligini yana bir bor ta'kidlashimiz darkor. Zero, yoshlarimiz kelajak egalari va mustahkam poydevori hisoblanadi.

Yoshlarimizni tarbiyalash jarayonida esa milliy tarbiya katta ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, farzandlarimiz tarbiyasiga etiborli bo'lsak, aynan shu mezon yoshlarimizni ma'nan yetuk, ruhan sog'lom, o'z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o'z milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan va qadrlaydigan barkamol hamda komil insonlar bo'lib yetishadi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi. 247 (6741)-soni. – 2017. 7 dekabr.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi – T harfi, Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent B-114.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi – M harfi, Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent B-549.
4. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir. – T.: "Tasvir". 2021.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi – I harfi, Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent B-209-210.
6. Quronov M. Milliy tarbiya. –T.: "Manaviyat". 2007.